



ISMOIL G'ASPIRALI JADIDCHILIKNING YORQIN NOMOYONDASI.

Turon Universiteti Andijon filiali

Pedagogika nazariyasi va tarixi

2-bosqich magistranti

Turgunov Dostonbek Rustamjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakati va yangi ziyolilarning shakllanishida Ismoil G'aspiralining faoliyati, ayniqsa u nashr qilgan “Tarjimon” gazetasi to'g'risida hamda uning boshqa ijodlari to'g'risidagi malumotlar. Turkiston jadidlarining G'aspiraliga bo'lgan munosabatini aniqlash ularning ijodi va faoliyatini batafsil tahlil qilishni taqozo etadi. Shu jihatdan olib qaralganda, Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida G'aspirali bilan mustahkam aloqa o'rnatgan va “Tarjimon”da faol ishtirok etganligi bilan ajralib turadi. Behbudiy o'z faoliyatida bevosita G'aspirali yo'lini tanladi. U G'aspiralining til birligi g'oyasini keng targ'ib qilganligi hamda quvvatlaganligi haqida bilishimiz mumkun.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Ismoil Gasprinskiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ajiko'y qishlog'i, Gaspra qishlog'i, sotsialistlar, liberallar, «usuli jadid», Tarjimon Gazetasi, qurultoy.

Аннотация: В данной статье представлена информация о деятельности Исмаила Гаспирали в формировании движения джадидов и новой интеллигенции в Туркестане, в частности, о его газете «Тарджиман» и других работах. Определение отношения туркестанских джадидов к Гаспирали требует детального анализа их работы и деятельности. С этой точки зрения, Бехбудий выделяется среди туркестанских джадидов тем, что установил прочные связи с Гаспирали и активно участвовал в работе «Тарджимана».



Бехбудий в своей работе напрямую следовал по пути Гаспирали. Мы можем узнать, что Гаспирали широко продвигал и поддерживал идею языкового единства.

Ключевые слова: джадидизм, Исмаил Гаспринский, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдулла Авлоний, Махмудходжа Бехбудий, село Аджиной, село Гаспра, социалисты, либералы, «усули джадид», газета «Тарджиман», съезд,

Abstract: This article provides information about the activities of Ismail Gaspirali in the formation of the Jadid movement and new intellectuals in Turkestan, especially the newspaper "Tarjiman" published by him, and his other works. Determining the attitude of the Turkestan Jadids to Gaspirali requires a detailed analysis of their work and activities. From this perspective, Behbudiy stands out among the Turkestan Jadids for having established strong ties with Gaspirali and actively participating in "Tarjiman". Behbudiy directly chose the path of Gaspirali in his work. We can learn that he widely promoted and supported Gaspirali's idea of language unity.

Keywords: Jadidism, Ismail Gasprinsky, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdulla Avloni, Mahmudkhodja Behbudiy, Ajikoy village, Gaspra village, socialists, liberals, "usuli jadid", Tarjiman Newspaper, congress.

Turkistonda “jadid” nomini olgan intelligensiya XX asrning birinchi 10 yilligida shakllandi. Ushbu guruhning asosini Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo‘qon shaharlari va atrofidagi ma’rifatparvarlar tashkil etdi. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Buxoroda Sadridin Ayniy, Fitrat, Usmonxo‘ja, Qo‘qonda Ashurali Zohiriy, Mahmudjon Obidov kabilar ushbu “jadid” guruhining markazida turdi. Yuqoridagi guruhning shakllanishida Rossiya imperiyasi qo‘l



ostida bo'lgan turkiy xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy sohada islohotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan jadidchilik harakatining asoschisi qrimlik Ismoil Gasprinskiyning (1851- 1914) faoliyati, ayniqsa, u nashr qilgan "Tarjimon" gazetasi muhim rol o'ynadi. Jadidlar Gasprinskiy va "Tarjimon" gazetasi bilan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaqindan tanisha boshladi. Chor Rossiyasi qo'l ostida bo'lgan Turkiston hududlarida ziyolilar "Tarjimon"ni obuna orqali olgan bo'lsalar, Buxoroda yashirin yo'llar bilan keltirib o'qidilar. Turkiston jadidlarining Gasprinskiyga bo'lgan munosabatini aniqlash ularning ijodi va faoliyatini batafsil tahlil qilishni taqozo etadi. Gasprinskiy (G'asprali) Ismoilbek (1851.21.3, Boqchasaroy yaqinidagi Ajiko'y qishlog'i — 1914.11.9, Boqchasaroy) — jadidchilik harakatining asoschisi, yozuvchi va publitsist. Gasprinskiyning otasi Mustaf o Gasprinskiy Rossiya harbiy dvoryani (praporshchik) bo'lib, Yalta shahri yaqinidagi Gaspra qishlog'idan edi. Gasprinskiy qishloq musulmon maktabi, Oqmachit (hozirgi Simferopol) gimnaziya va Voronejda, Moskva kadetlik korpusida o'qidi (1864—67).

Qrimga qaytgach, rus tili o'qituvchisi bo'lib ishladi (1867—70). Istanbul va Sorbonna (Parij) universitetlarida o'qidi (1871—75). Jazoir, Tunis, Misr, Gretsiyada bo'ldi. Parijda frantsuz sotsialistlari va liberallariga yaqinlashdi. Turkiyada Yosh turklar harakati rahbarlari bilan tanishdi (1875—77). Boqchasaroy shahri meri qilib saylandi (1877).

Gasprinskiy turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o'rganib, Sharq bilan G'arb olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldi. Gasprinskiy «Rusiya musulmonligi» (Simferopol, 1881) ilk risolasida Yevropa tsivilizatsiyasidan ko'r-ko'rona andoza olishga qarshi chiqib, uni tanqidiy qabul qilishga, musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnika yutuqlaridan foydalanishga da'vat etdi. «Ovrupo madaniyatiga bir nazar muvozzini» (Istanbul, 1885) asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kirishib, uning asosiy tamoyillarini shubha ostiga oldi.



Gasprinskiy Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon xalqlar maorifini tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor berdi. Boqchasaroyda dastlabki «usuli jadid» (yangi usul) maktabini ochdi (1884). Turkiston general-gubernatori N. O. Rozenbaxga musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini yubordi. Rad javobini olgach, 1893 yili Turkistonga o'zi keldi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Gasprinskiy jadidchilik g'oyalarini kengroq yoyish uchun «Tarjimon» (1883 yil 10 apreldan), «Millat» (1908), «Bolalar olami» (1908—15), «Uyg'onish» (Qohira, 1908, arab tilida) gazetalari, «Ayollar olami» jurnali (1908—10), «Xa-xa-xa!» hajviy haftanomasini chiqardi. Jadid maktablari uchun «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini, «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» (1898) kitobini yozdi.

Gasprinskiy musulmon milliy ozodlik harakatining yo'l boshchisi sifatida tanildi. U Kavkaz, Volgabo'yi, Misr va Hindistonga borib, umum musulmonlar qurultoyini chaqirishga harakat qildi. Butun Rossiya musulmonlari 3 ta kongressi ishida faol qatnashdi (1905—06). Dastlabki umummusulmon siyosiy partiyasi «Ittifoq ul-muslimin»ni tuzish tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. U o'zining ta'lim usullari, jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va siyosiy faoliyati bilan keng tanilgan. Ismoil Gaspirali o'z nomini islom Sharqi xalqlarining ma'rifatparvarlik harakati — jadidchilik bilan bog'lagan. U boshlang'ich ta'limga dunyoviy xususiyat berishga harakat qildi va odatiy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirdi. Jadidchilik maktablari Ularning asosiy vazifasi – musulmon mamlakatlaridagi ta'limni zamonaviylashtirish va yangi pedagogik usullarni joriy qilish edi. Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko'zga tashlangan yangilaninh harakatlari ko'p jihatlari bilan shu nomga, uning «Tarjimon» gazetasiga kelib bog'lanadi. Va ushbu davrdan e'tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko'rsatgan biror turkistonlik ziyoliy yo'qki,



bu nomni chetlab o'tgan bo'lsin. Shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa , maslak-intilishlari bilan tanishish, Turkiston jaidchiligi va jadid adabiyotining shakllanishi hamda rivijlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohoyatini anglashda, yo'nalishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyatga ega. Bu nom yuz yil muqaddam turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edi. U chiqargan “Tarjimon” gazetasining 1908- yildagi 25 yillik to'yida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1910-yilda esa Fransiyaning eng e'tiborli jurnallaridan “Revyu dyu monde musulman” uning millati oldidagi buyuk xizmatlari uchun nomzodini “Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel mukofot”iga tavsiya qilgan va buni Xorijiy mamlkatlardagi juda ko'p matbuot organlari qo'llab-quvvatlab chiqqan edi. Bu davrda xalqimizni ma'rifatli va savodli qilish bilan bir qatorda umuminsoniy qadryatlarni shakllantirishga hissa qo'shgan jadidlarimiz sanoqlidir. Ammo ularning samarali mehnati va jonlarini fido qilganligi tahsiga sazovordir. Jadidlar o'zlarining “usuli jadid” jamiyatini ochishi bilan ko'plab muvaffaqiyatga erishdi. Behbudiy o'z faoliyatini shakllantirishda va olib borishda bevosita Gasprinskiy yo'lini tutgan, deb aytish mumkin. U birinchi bor 1899 yili haj qilish uchun sayohatga chiqadi va Istanbul, Qohira kabi shaharlarda bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchi Adib Xolidning ta'kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan. Oradan 8 oy vaqt o'tib, u Samarqandga qaytishi bilan “Tarjimon” gazetasiga obuna bo'ldi. Behbudiyning 1899-yilgi safaridan “Tarjimon” gazetasiga obuna bo'lib o'qiy boshlaganligini uning yaqin hammaslagi bo'lgan Hoji Muin ham tasdiqlaydi. Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili Turkistonda mahalliy tilda chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatining gazet”dan boshlandi. Gasprinskiy 1904-yildagi Rossiya-Yaponiya urushi munosabati bilan “Tarjimon”da musulmonlarni bu



urushda ishtirok etayotgan rus va musulmon askarlariga yordam tariqasida pul, kiyim va oziq-ovqat yig'ib yuborishga da'vat qilib bir necha maqola yozdi. Behbudiy ham ayni shu mavzuda "Turkiston viloyatining gazet"i da kichik bir maqola e'lon qildi. Unda Behbudiy turkistonliklarga musulmonlar nima sababdan rus askarlariga va davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntiradi. Muallif o'z so'zlarining dalili sifatida "gazetlarda yozilib" turgan "Qrim tarafidagi ba'zi shaharliklar" pul va kiyim yig'ib yuborganliklari voqyeasini misol keltiradi. Behbudiy "gazetalar" deganida aynan "Tarjimon"ni nazarda tutadi va unda berilgan xabarlardagi ma'lumotlardan foydalanadi. Behbudiyning "Tarjimon"dagi ishtiroki 1904-yilning so'ngida ko'rinadi. Gasprinskiy bilan Behbudiy orasidagi amaliy hamkorlik aynan shu davrdan boshlanadi deyish mumkin. "Tarjimon" idorasi Rossiya musulmonlari manfaatlari uchun mo'ljallangan turli tadbirlarga o'z o'quvchilarini pul xayriya qilishga doim targ'ibot ishlarini olib borgan. Behbudiy "Tarjimon" idorasining shunday murojaatlaridan biriga javob tariqasida Peterburgda Buxoro amiri Abdulahadxon tashabbusi bilan qurilayotgan masjid hamda Samara viloyatida tashkil etilgan qizlar maktabiga xayriya tarzida pul yuboradi va "Tarjimon" idorasiga yig'ilayotgan pullarni qay tartibda kerakli joylarga yuborishi haqida savol bilan murojaat qiladi. Gasprinskiy Behbudiya tashakkur bildiradi va savoliga batafsil javob beradi. Ismoil Gasprinskiy hayoti va sermazmun faoliyatini Turkistonsiz, uning tarixi va taqdiri haqidagi o'ylarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ulug' mutafakkir Turkiston xalqinig boy ma'naviy merosini Rusiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohatchilik harakatlari uchun ma'naviy merosini Rusiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohatchilik harakatlari uchun ma'naviy omil deb biladi. Ayni paytda, butun vujudi bilan Turkiston uchun ham najot yo'lini izlaydi va buni yangilanishda, islohotda ko'radi. Shunga ko'ra, uning qarashlari ham Turkiston bilan teran bog'langan edi. Shu sababli bu fikr-qarashlar Turkistonda aks-sado topdigina emas, turkistonlik taraqqiyparvar ziyolilar uchun dasturul amal vazifasini bajardi. Gaspirali jadidchilikni tashkil etgan va rivojlantirgan,



shuningdek, bu usulni Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston va boshqa turkiy xalqlar o‘rtasida ommalashtirgan. U milliy yangi usul maktablari uchun darsliklar yozgan va bu darsliklardan eng mashhuri „Xo‘ja va Subyon“ (Bolalar o‘qituvchisi) bo‘lgan.

Gaspirali siyosatda ham faol ish olib borgan. 1905 yilda u va uning hamfikrlari „Umumrossiya musulmonlar ittifoqi“ni tashkil etgan. Shuningdek, Ismoil Gaspirali Markaziy Qo‘mita a‘zosi bo‘lib, Qrimdagi tashkilotga rahbarlik qilgan va o‘zining siyosiy qarashlarini qo‘llab-quvvatlashga intilgan. 1907 yilda u Sharqning ilg‘or kuchlarini birlashtirish uchun Qohirada Butun jahon musulmonlari qurultoyini chaqirishni taklif qilgan.

Gaspirali nafaqat pedagogika, balki adabiyot va publitsistikada ham o‘z o‘rnini topgan. Uning „Fransuz maktublari“ romani, „Dar ul Raxat musulmonlari“ utopik qissasi, „Afrika harflari – Amazonlar mamlakati“ hikoyasi, „Arslon qiz“ qissasi va boshqa ijodiy asarlari keng ommaga tanishdir. Shuningdek, u turkiy xalqlar orasida bir qator adabiy janrlarning asoschisi bo‘lgan.

Gaspirali o‘zining faoliyati uchun bir qator ordenlar bilan taqdirlangan. U „Yulduz oltin ordeni“ (III daraja) bilan Buxorodan, „Medjidiye“ ordeni (IV daraja) bilan Turkiyada, „Arslon va Quyosh“ ordeni (IV va III daraja) bilan Erondan mukofotlangan. Shundan tashqari, Sankt-Peterburg Rossiya Texnik Jamiyatining medaliga ham ega bo‘lgan.

Ismoil Gaspirali 1914 yil 24-sentyabrda Baxchisaroyda vafot etdi va Zinjirli madrasasi hududida dafn etildi. Uning ta‘lim va jamiyatga qo‘shgan hissasi, shuningdek, jadidchilik harakatiga olib kelgan tub o‘zgarishlar, hozirgi kunda ham qadrlanadi.



Ismoil Gaspirali “Tarjimon” gazetasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Mazkur gazeta Turk dunyosini birlashtirgan ilk matbuot nashri sifatida 1883-1918 yillarda nashr qilingan va Rossiyaning turkiy tilli aholisi o‘rtasida tarqatilgan. Bolshviklar hukumati talabi bilan 1918 yil fevral oyida gazeta nashri to‘xtatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “XX asrning Turkiy dunyosining ikki buyuk intellektuali” Z. Abdirashidov
2. “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” B. Qosimov
3. “XX asrning Turkiy dunyosining ikki buyuk intellektuali” Z. Abdirashidov
4. Ergashev B. Jadidchilik harakati va Ismoil Gasprinskiy g'oyalarining O'rta Osiyoga ta'siri.
5. Abdirashidov Z. Ismail Gasprinskiy i "Tarjumon". - Toshkent: Akademnashr,